# YOSHLARGA TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISDA SIDERAT EKINLARNING MUXIM AHAMIYATGA EGA EKANLIGINI TUSHINTIRISH YO‘LLARI.

**Xayitboyeva Nodirabegim** -GulDU magistranti

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yer masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ko‘plab O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Hukumat qarorlarining qabul qilinishi yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va yer munosabatlarini tartibga solishning huquqiy poydevorini yaratib berdi.

Bugungi kunda dunyoda eng dolzarb muammolardan biri bu ekologik va oziq-ovqat havfsizligidir. yerning unumdorlikka ega bo‘lgan eng ustki yupqa tuproq qatlami chegaralangan bo‘lib, inson uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotining 93,9 foizi ana shu yerlarda yetishtiriladi.

Ayrim mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tobora o‘sib borayotgan aholi soni va ehtiyojining o‘sishidan ortda qolmokda.

Tuproqlarda kechayotgan degradatsiya, degumifikatsiya, sahrolanish va antropogen omillar ta’sirida ifloslanishi kabi salbiy jarayonlar, tuproqlar unumdorligini, ekinlar hosildorligini oshirish bo‘yicha dunyo miqyosida bir qator tizimli ishlar amalgan oshirilmoqda.

Tuproq hamma narsaning me’yori va mohiyati ekanligini hisobga olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2013 yil 20 dekabrda har yilning 5 dekabrini Butun jahon tuproq kuni deb e’lon qildi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish, bo‘shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat va moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Shuni alohida ta’kidlashni joizki, tabiiy resurslar ichida tuproq o‘ziga xos maqomga ega bo‘lib, undan ilmiy-amaliy asoslangan tarzda samarali foydalanishni tashkil etish qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda uni muhofazalashning asosi bo‘lib,

pirovardida mamlakatimizning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash, ekologik toza mahsulotlarini ishlab chiqarish, halqimizning turmush farovonligini yanada oshirishga zamin yaratadi. Ona zamin har doim bizning mehrimiz va e'tiborimizga muhtoj, uni asrab-avaylash va oqilona foydalanishi barchamizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

Tuproq unumdorligi - tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa bilan ta'minlash xususiyati. Tuproq tog‘ jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziqovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo‘jaligi. o‘simliklari o‘stiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish. vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproqhosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuprok hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o‘simliklar bilan uzviy boglik, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillar: o‘simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar va ular turining yetarli miqdorda bo‘lishi; o‘simlik o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan namning mavjudligi; yaxshi tuprok, aeratsiyasi; tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi; zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va boshqalar) miqdori; tuproq reaksiyasi va boshqalardan iborat. Bu xususiyatlar yigindisi tuproqning madaniylashganlik holati darajasini belgilaydi. Unumdorlikning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu elementlardan birortasining o‘zgarishi boshqalariga ham ta'sir ko‘rsatadi. Har xil o‘simliklarning Tuproq unumdorligiga talabi turlicha bo‘lganligi sababli va o‘simlik biologiyasiga bog‘liq holda bir tur o‘simlik uchun unumdor hisoblangan tuproq boshqa tur uchun unumdor bo‘lmasligi mumkin.

Unumdorlik, asosan, tabiiy va samarali turlarga bo‘linadi. Tabiiy unumdorlik tuprokdagi oziq moddalar umumiy zaxirasi bilan xarakterlanadi; uning shakllanishi esa tuprok hosil bo‘lish sharoitlari va omillari hamda genezisiga bog‘liq. Samarali (sun'iy) unumdorlikning inson mehnat faoliyati bilan, ya'ni yerga ishlov berish, sug‘orish, o‘g‘itlash, sho‘rini yuvish kabi agrokompleks tadbirlar bilan boshqaradi Sun'iy yo‘l bilan qumlik, toshloq, botqoqlik kabi unumsiz yerlarda unumdor tuproklar paydo qilish mumkin. Tabiiy unumdor tuproklar ba'zan kam samaraga ega bo‘lishi mumkin va aksincha yuqori agrotexnika tadbirlarini qo‘llash natijasida unumsiz tuproqlarda yuqori unumdorlikka erishish mumkin. Tuproqdagi oziq moddalar miqdori (azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy, oltingugurt, temir, bor, marganets va boshqa mikroelementlar) tuprok, hosil qiluvchi jinslar va uning tagidagi yotqizikdar (tagzamini) tarkibiga hamda tuproq hosil qiluvchi jarayonlarga bog‘liq. O‘simliklarning mikroelementlarni o‘zlashtirishiga tuproq reaksiyasi katta ta'sir ko‘rsatadi Tuprokdagi oziq moddalar zaxirasi mineral va organik o‘g‘itlar solish bilan boshkarib turiladi. Tuprokda suvda oson eruvchi tuzlar, asosan, natriy, shuningdek, magniy, kaltsiy va boshqa kationlarining ortiqcha miqdorda bo‘lmasligi

unumdorlikning muhim shartidir. Tuproqda tuzlar miqdorining me'yordan oshib ketishi - tuproqning sho'rlanishi, asosan, noto'g'ri sug'orishdan vujudga keladi, natijada unumdorlik keskin pasayib ketadi. Tuproq qatlamidagi zararli tuzlarni yo'qotish uchun sho'r yerlar yuviladi (qarang Sho'rlanishning oldini olish uchun esa tuproq xususiyati va tarkibiga karab suyurish rejimi belgilanadi. Qurg'oqchilik rnlarida, jumladan, sug'orma dehqonchilik zonalarida suyurish Tuproq unumdorligini tubdan oshiradi. Tuproq unumdorligining past bo'lishi, ko'pincha patogen organizmlar mavjudligiga ham boglik. Ularni kimyoviy (xasharotlarni bepusht kilish, fungitsidlar sepish va boshqalar) va agrotexnik tadbirlar (almashlab ekish, tuprokka ishlov berish) yordamida yo'k kilish tuproqning samarali unumdorligini keskin oshiradi. Tuproq unumdorligini saqlash uchun tuprokka eroziyaga yo'l ko'ymaydigan usullarda ishlov beriladi, dala ihota o'rmonzorlari barpo kilinadi, daryo va kanallar qirgog'i mustahkamlanadi va hakozo.

Xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarimizga ushbu ma'lumotlarni doyimiy ravishda yetkazib turishimiz ona zaminimizga balayotgan noxaqchiliklar, e'tiborsizliklar xaqidagi ma'lumotlarni bong urib turish orqali o'quvchini sergaklantirib olamshumul axamiyat kasb etadigan muammolarni yechishga o'z xissamizni qo'shib turishimiz lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi. -Toshkent,2007.

2. Abduazimov A.M. Azotli o'g'itlarni turli usullarda qo'llashning bahorgi bo'g'doyning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri. "Qishloq xo'jaligi ilm-fanida yoshlarning roli" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. 1-jild. Toshkent, 2020, 227 b.

3. Xalilov N.X. Kuzgi bo'g'doyni o'g'itlash va sug'orishning ilmiy asoslari. Monografiya. -Toshkent: Fan, 2009.-28 b.

4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent, 2007. – 147 b.

5. Dexqonov A.M. Irrigatsiya eroziyasiga chalingan tipik bo'z tuproqlar sharoitida unga qarshi kurash elementlari asosida kuzgi bug'doyni tabaqalab o'g'itlash: Q.-x fanlari nomzod. diss. avtoreferati. -Tashkent: O'zPITI, 2007.

6. Xalikov B.M.-YAngi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumdorligi. Toshken. 2010. B. 71.

7. Dotterweich, Markus (2013-11-01). "The history of human-induced soil erosion: Geomorphic legacies, early descriptions and research, and the development of soil conservation – A global synopsis". Geomorphology. 201: 1–34.

8.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi *(*2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan